

MUSTAQIL TOPSHIRIQLAR ORQALI FANLAR INTERTRATSIYALASHUVI

G`oyibnazarova Nargiza Raximjonovna

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalara o`rgatish milliy markazi
Maktabgach, boshlang`ich va maxsus
ta`lim metodikalari kafedrasida katta o`qituvchisi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang`ich ta`limda mustaqil topshiriqlar orqali fanlarni integratsiyalashgan holda o`qitish jarayoni haqida fikrlar bayon qilingan.

Kalit so`zlar: mustaqil ta`lim, interasiya, falar layoqat, ko`nikma, innovatsion yondashuv, tayyorgarlik

ИНТЕРНАЦИОНАЛИЗАЦИЯ ДИСЦИПЛИН ЧЕРЕЗ САМОСТОЯТЕЛЬНЫЕ ЗАДАНИЯ

Аннотация: В данной статье изложены идеи о процессе интегрированного обучения предметам в начальном образовании посредством самостоятельных заданий.

Ключевые слова: самостоятельное обучение, Интеракция, паранормальные способности, навыки, инновационный подход, подготовка revodchik uzb

Гойибназарова Наргиза Рахимджановна

*Национальный центр обучения педагогов новым
методикам дошкольное, начальное и специальн старший преподаватель
кафедры методики обучения*

INTERTRATION OF DISCIPLINES THROUGH INDEPENDENT ASSIGNMENTS

Annotation: this article describes the process of integrated teaching of subjects through independent assignments in primary education.

Keywords: Independent Education, interactionism, Valar competence, skills, innovative approach, preparation revodchik uzb

G`oyibnazarova Nargiza Rakhimjanovna

Namangan Regional National Center of

Teaching New Methodologies to Teachers

Boshlang'ich ta'limda mustaqil ishlarni barcha ish faoliyatlariga mustahkamlash, takrorlash, umumlashtirish va uy vazifalariga tadbiiq etish mumkin. O'quvchilarga beriladigan turli mustaqil topshiriqlarni tavsiya qilish ularni ijodkorlikka va o'z ustida ishlashga o'rgatadi.

Integratsiyalashgan darslarni o'tishda avvalo ularni uyg'unlashtirishga qaratiladi. Bu darslarni o'tishda tayyorgarlik ishari bosqichidan boshlansa maqsadga muvofiq bo'ladi. So'ng metod, topshiriqlar va vositalar yordamida amalga oshiriladi. Keyingi vazifa mavzu va predmetlar umumlashtiriladi. Integratsiyalashgan darsda mavzular va maqsadlar uzviylashtiriladi. G'oya va tushunchalar imiu-metodik jihatdan aniqlashtiriladi. O'quvchilarning yoshi ham hisobga olinadi. Qamtrab olinayotgan ma'lumotlar va ham ham e'tiborga olinishi kerak. Bunda dars biror mavzuga bog'lab o'tilishi mumkin.

Quyida tavsiya qilingan topshiriqlar o'quvchilarni hamkorlikda ishlash orqali mustaqil fikrlashga, kreativ fikrlash ko'nikmalarini o'stirishga qaratilganligi yana bir bor ta'kidlash mumkin. Tavsiyada zamonaviy topshiriq va metodlardan namunalaridan berilgan. Ulardan darslarda va g'oyalar bilan boyitib foydalanish tavsiya etiladi. Bu tavsiya ham ona tili fani yuzaidan maqsadni qaratilgan holda bir qator metod va topshiriqlarni o'z ichiga olgan. Ta'lim sohasidagi rivojlanishlarga baholi qudrat hissa qo'shadigan yaxshi usullar tanlangan.

Masalan, ona tili darsini olsak o'quvchilarga son so'z turkumi mavzusini mustahkamlashda berilgan so'zlarning harflaridan yangi son so'z turkumiga oid so'zlar tuzish vazifasini berish mumkin. Bu topshiriq o'quvchilarning har biriga beriladi va mustaqil bajarishlari uchun mo'ljallangan.

Bu topshiriqni bajarishda yozgan so'zlarini son so'z turkumiga moslab yozish vazifasi ham beriladi. Bunda ona tilini ikki fanni o'zaro bog'liq o'rganadilar. Buni ham o'quvchilar mustaqil bajaradi. Bunda o'quvchilar ijodiy izlanadilar. Topshiriq savollar bilan mustahkamlanadi.

Topshiriq. "Men qaysi fanda ko'p qo'llanaman" so'zlar qutichasidan (quticha har bir partada bo'lishi maqsadga muvofiq) so'zlarning olib ma'nosiga ko'ra har bir o'quvchi alohida tarqatmada chiqqan turli so'zlarni ot, ifat, son, fe'l so'z turkumlariga mos ravishda tartiblab yozishlari talab etiladi.

"Men qaysi fanda ko'p qo'llanaman" so'zlar qutichasidagi so'zlardan namunalar

Kitob, qalam, ruchka, chizg'ich, plastilin, rasm, rubob, uchta, qora qalam, qaychi, chiziqli daftar, kompyuter, qog'oz, kley, koptok, shakllar, lug'at daftar, sonlar.

O'quvchilar qutichadan aralash so'zlardan tegishli so'z turkumlariga oidini aniqlaydi, so'ng quyidagicha yozadi.


M: Ona tili –ruchka, chiziqli daftar.

Matematika- chizg'ich , sonlar

Tasviriy san'at- qalam, qora qalam.

Topshiriq: O'quvchilarga so'zlar uchburchak, to'rtburchak, beshburchak, aylana, romb, teng yonli uchburchak, tog'ri to'rtburchak shakllaridagi tarqatmalarda beriladi. Bu shakllarda berilishi o'quvchilar bu shaklni nomini qatnashtirib gap tuzib uni chirioyli yozuv asosida yozib bo'lib, so'ng xarttaxtada osib qo'yilgan tayyor ko'rgazmaga shaxsni, nomni, belgini, sanog'ini, harakatni bildirishiga ko'ra qaysi so'z turkumiga oid ekanligini aniqlab o'z shaklli tarqatmani to'g'ri joylab yopishtirishi kerak bo'ladi. Namuna: o'quvchiga tortburchak shaklli tarqatmada shaftoli so'zi yozilgan bo'lsa uni narsa bildiradigan ko'rgazmaga yopishtiradi. Shaklning nomi to'rtburchak.

Gap: Bolalar to'g'ri tortburchak shaklli maydonda o'ynadilar.



O'quvchilarda so'z turkumlari orqali so'zlarning leksik ma'nosi haqidagi tushunchalarni yanada o'stirish uchun gaplar beriladi, o'quvchilar shaxs va narsalarning nomi, rangi, mazasi, shakli, xususiyatini, harakatni, sanog'ini ifodalaydigan sifatlarni mosini tanlash va gapni to'ldiradirib yozadilar.

Matematika faniga bogg'lash uchun chiziqlar o'rniga nechta so'z qo'ydingiz? Ular jami necha harf va bo'g'inni tashkil etar ekan savoli beriladi. O'quvchilar so'z va bo'g'inni sanashlari orqali xatosiz yozishga ham erishadilar.

Shaxsning xususiyatini ifodalaydigan sifatlarni topib yozing? Qandau o'quvchi?

_____, _____, _____, _____, _____ do'st

Aqlli, odobli, yaqin, qadrli, ziyrak do'st.

1. Narsalarning nomini yozing? Nima gullaydi?

_____, _____, _____, _____ gullaydi.

O'rik, atirgul, pomidor, xurmo, gullaydi.

Integratsion darslarni tashkil etish samarali natijalar beradi. Bilish va qiziqish faolligini oshiradi, O'zining imkoniyatlarini ishga solishga undaydi.

Topshiriq. "Berilgan fikr" Bu tophiriqda o'quvchilar berilgan fikrga mos tegishli tushunchani topishi kerak bo'ladi. Bunda avval o'qiydilar so'ng unga tegishli tushunchani topishga harakat qiladilar. Buni jamoaviy yoki yakka tartiba o'tkazish mumkin.

Bajarish namunasi.

U bilim mnabayi - o'quvchi javobi: -kitob.

Otangdek ulug' – o'uvchi javobi: - mehmon

Mmustaqil ishlarning ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilar o'z bilim va ko'nikmalari - hayotiy tajribalariga, darslik va boshqa manbalardan ona tili va boshqa fanlari o'rtasidagi bog'liqlikni anglashga doir bilimlari uyg'unlashadi. Hayotiy bilimlariga asoslanib mustaqil ijodiy faoliyat yuritadilar. Bundan ko'rinib turibdiki, mustaqil ishlash jarayonida o'quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyati va shu bilan birga bilish jarayoni faollashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Boshlang'ich sinflarda ona tili o'qitish metodikasi" G. Ernazarov,, Toshkent -"Ilm Ziyo", 2001 –yil
2. R. Ishmuhammedov, M.Yuldashev " Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar" Toshkent, 2013- yil